

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIGA O'ZLASHGAN ARABIZMLARNING LINGVISTIK-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dilrabo BAXRONOVA

Professor, filologiya fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Utkir BURXONOV

doktorant
Kastilla la Mancha universiteti
Syudad-Real, Kastilla la Mancha, Ispaniya

ЛИНГВОЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ АРАБИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ И ИСПАНСКОМ ЯЗЫКАХ

Дилрабо БАХРОНОВА

Профессор, доктор филологических наук
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

Уткир БУРХОНОВ

Докторант
Университет Кастилия-ла-Манча
Сьюдад-Реаль, Кастилия-ла-Манча, Испания

LINGUISTIC AND ETYMOLOGICAL FEATURES OF BORROWED ARABISMS IN UZBEK AND SPANISH LANGUAGES

Dilrabo BAKHRONOVA

Professor, Doctor of Philology
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

Utkir BURKHONOV

PhD student
University of Castilla-la-Mancha
Ciudad Real, Castilla-la-Mancha, Spain

UDC (UO'K, УДК): 81-22

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Baxronova D., O'zbek va ispan tillariga o'zlashgan arabizmlarning lingvistik-etimologik xususiyatlari. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 65-75.

<https://doi.org/10.36078/1678951407>

Annotatsiya. Dunyo tillari lug'at boyligida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar salmoqli o'rin egallaydi. O'rta asrlarda o'zbek va ispan tillariga arabcha so'zlarning bosim bilan kirib kelishi arab dunyosi, jumladan, arab tilining bevosita ta'siri kuchayganligidan dalolat beradi. O'sha vaqtda tarjimalar sonining sezilarli darajada ko'payishi, arabcha "al" artiklining yo'qolishi ikki mamlakatda ham bilingvizm vaziyati yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Muayyan tushunchani anglatuvchi leksema mavjud bo'lmaganda yoki uni qo'llashdagi noqulayliklar sababli so'zlovchi o'zlashma so'z — arabizmlarni nutqda qo'llay boshlagan. Arabizmlarning ba'zilari to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan bo'lsa, ba'zilari uchinchi yo to'rtinchi

Received: December 24, 2022

Accepted: February 17, 2023

Published: February 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

vositachi til orqali ham kirib kelgan. Bunday “sayohatlar” davomida soʻzlar fonetik va orfografik oʻzgarishlarga uchragan, ularda maʼno torayish yoki kengayish hodisasi roʻy bergan, koʻpincha oʻzlashgan soʻzlar har bir tilda mavjud ichki qonuniyatlarga boʻysungan. Ushbu masalalar bu maqolada “alkogol” va “zenit” leksemalari orqali tahlil qilindi. Jahon tilshunosligida arabizmlar maʼlum darajada oʻrganilgan boʻlsa-da, maqola orqali qilingan xulosalar oʻzbek leksikologiyasini yangi lingvistik-etimologik, ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: soʻz; etimologiya; izohli lugʻat; ispan tili; oʻzbek tili; alkogol; zenit.

Аннотация В лексике языков мира значительное место занимают слова из других языков. В Средние века арабские слова проникли в узбекский и испанский языки, что свидетельствует об усилении прямого влияния арабского мира, в том числе и арабского языка. В то время значительное увеличение количества переводов и исчезновение арабского артикля "ал" свидетельствуют о возникновении ситуации билингвизма в обеих странах. При отсутствии лексемы, обозначающей определенное понятие, или из-за неудобства ее употребления, говорящий стал использовать в речи арабизмы. Некоторые из арабизмов были ассимилированы напрямую, а некоторые были введены через третий или четвертый промежуточный язык. Во время таких "путешествий" слова претерпевали фонетические и орфографические изменения, в них происходили явления сужения или расширения значения. Нередко ассимилированные слова подчинялись внутренним законам, существующим в каждом языке. Эти вопросы были проанализированы в данной статье через лексемы "алкоголь" и "зенит". Хотя в мировом языкознании арабизмы в определенной степени изучены, выводы, сделанные в статье, служат обогащению узбекской лексикологии новыми лингво-этимологическими и научно-теоретическими взглядами.

Ключевые слова: слово; этимология; толковый словарь; испанский язык; узбекский язык; алкоголь; зенит.

Annotation Words from other languages occupy a significant place in the vocabulary of the world's languages. In the Middle Ages, Arabic words penetrated into the Uzbek and Spanish languages, which indicates the strengthening of the direct influence of the Arab world, including the Arabic language. At that time, a significant increase in the number of translations and the disappearance of the Arabic article “al” testify to the emergence of a situation of bilingualism in both countries. In the absence of a lexeme denoting a certain concept, or because of the inconvenience of its use, the speaker began to use Arabic words in his speech. Some of the Arabisms were directly assimilated and some were introduced through a third or fourth intermediate language. During such “journeys” words underwent phonetic and spelling changes, phenomena of narrowing or expansion of meaning occurred in them. Often assimilated words obeyed the internal laws that exist in each language. These issues were analyzed in this article through the lexemes “alcohol” and “zenith”. Although Arabisms have been studied to a certain extent in world linguistics, the conclusions made in the article serve to enrich the Uzbek lexicology with new linguo-etymological and scientific-theoretical views.

Keywords: word; etymology; explanatory dictionary; Spanish language; Uzbek language; alcohol; zenith.

Kirish. Dunyo xalqlari tadrijiy rivojlanish mobaynida olgan bilimi, ma'lumotlarini o'z tilida saqlaydi, til vositasidagina milliy-madaniy merosini ajdodlardan avlodlarga yetkazadi. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida biriktiradi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da til haqida ta'kidlashicha:

Til arslān turur kör ešikda yatür,

Aya ewlüg orsiq başıñni yeyür (Til arslondir, qara, u seni doim eshikda poylab yotadi. Ey mag'rur uy xo'jasi, hushyor bo'лки, agar tilingga ortiqcha erkinlik bersang, o'ylamasdan so'zlasang — u bir kun emas, bir kuni o'z boshingni yeydi....)" yoki til aql va bilimning tarjimonidir. Bilki, kishini nuroniy qiluvchi vosita (uning) ochiq va mazmundor tilidir. Til kishini izzatli qiladi, kishi tili bilan baxtli bo'ladi, mazmunida tilni ta'riflaydi (14, 60). Bugungacha insoniyat tafakkurida yashab kelayotgan har bir ong-shuurdagi bilim uchun so'zga/tilga har qancha ta'rif berilsa ham oz. Alisher Navoiy, *Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil*, deganida tilning nainki muloqot, balki dillarni bog'lovchi vosita ekanligiga e'tibor qaratib, inson qalbi xazina bo'lsa, uning kaliti so'zdir (15), deb ta'kidlagan. Qisqa aytganda, xalqimizning necha asrluk boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati ona tili ta'sirida shakllangan va shakllanmoqda.

V. Kolesov fikricha, biz ajdodlarimiz qachonlardir o'zi uchun nimani va qanday kashf etganligini tushunib, ularning olamni bilishga oid tasavvurlarini hech bo'lmaganda umumiy jihatdan tiklashimiz va bu yutuqlarni o'zimiz uchun tamaddun va inson ruhining milliy shakllaridagi muvaffaqiyati sifatida anglab yetishimiz lozim — chunki har qanday madaniyat milliy shakllarda tug'iladi va rivojlanadi (16, 9).

O'zbek xalqining taraqqiyot bosqichlarida ilm-fan rivoji, san'at va madaniyatning betakror namunalari, buyuk siymolarning ilm-fan va ilmiy faoliyatda erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga olamshumul hissa bo'lib qo'shilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy kabi mutafakkirlar yashab ijod etgan Somoniylar davri *birinchi renessans davri* deb atalmoqda. Zotan, ushbu davrda tibbiyot, astronomiya, kimyo, matematika, geografiya, tarix va h.k.ga oid ilmiy-falsafiy asarlar va olamshumul kashfiyotlar yaratildi.

Amir Temur va temuriylar davri dovrug'ini tavsiflashga hojat yo'q. Zero, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalari hamda tafakkur doirasining keng yuksalgan bu davri o'zbek tarixining *ikkinchi renessans davri* deb nomlandi. Ushbu rivojlanishlar davrida o'zbek tilshunosligi ham taraqqiy etdi, u mutafakkirlar ijodida yuksaldi, bugun lingvistikada eng yangi oqim deb nomlanayotgan antropotsentrizm, lisoniy shaxs (tildagi shaxsiyat), qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy singari olimlar ijodida o'z aksini topdi. O'zbek tarixiy tilshunosligi turli nomlar ostida birlamchi va ikkilamchi renessans davrlarini o'z boshidan kechirdi. Xo'sh, 'recessans' terminining etimologik mazmunida nima tushuniladi?! **Renessans**ning kelib

chiqishi lotincha *renasci* soʻziga borib taqaladi. Bu soʻz italyanchada *Rinascimento*, ispanchada *Renacimiento*, fransuzchada *Renaissance* shaklida namoyon boʻlib, “qayta tugʻilish, uygʻonish” degan maʼnoni ifodalaydi (17). Yevropa madaniyatida Oʻrta asrlardagi rivojlanish va maʼrifatparvarlik davri shunday nomlandi. Oʻrta asrlardagi bu uygʻonish davrining oʻziga xos xususiyati madaniyatning dunyoviy tabiati, uning insonparvarligi va antropotsentrizmlik xususiyatiga ega boʻlganligidadir. Hozirgi tilshunoslikda ham yangi davrga xos etnik renessans shunga olib keldi-ki, ilm-fanda eng dolzarb va munozarali masalalar muayyan xalq va ijtimoiy oʻziga xoslik hamda oʻzini oʻzi anglash masalalaridan iborat boʻlib qoldi.

Ilmiy izlanishga xos mantiq lisoniy identiklik, tilning etnogenez jarayonidagi oʻrni muammosiga eʼtibor qaratishni talab qildi. Shu bilan bir vaqtda lisonning ahamiyatini etnik madaniyatga murojaatsiz aniqlash mumkin emasligini koʻrsatdi.

Demak, muayyan madaniyatga xoslikni oʻrganish oʻsha madaniyatga tegishli tilning qirralarini ochib beradi. Bu sohada amalga oshirilgan izlanishlarni oʻrganib, tilning etnoijtimoiy jarayonlardagi rolini quyidagicha talqin etish mumkin:

- 1) til — etnomadaniy rivojlanishning asosiy sharti;
- 2) til — taraqqiyot hosilasi;
- 3) til — etnik madaniyatning mazmuni tashuvchisi;
- 4) til — insonning ijtimoiy tabiatini ifodalash vositasi;
- 5) til — madaniyat kodlovchisi;
- 6) til — madaniyatning ochqich kaliti yoki dekodeirovkasi va

h.k.

Ushbu qarashlarni milliy-madaniy holatdan turib tizimlaganda, u tilni madaniyat fenomeni va avvalo, ajdoddan avlodga tashuvchi omil sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi.

Shu bois tilning etnik madaniyat bazaviy elementi sifatidagi har tomonlama lingvistik tahlili, uning oʻsha xalqqa xos barcha belgilar tizimidagi oʻrnini anglashda zarur hisoblanadi. Ona tilimizga oʻzlashgan soʻzlarning etimologik, tarixiy-semantik xususiyatlarini oʻrganish davomida ularning qiziqarli jihatlari yuzaga chiqdi, ayniqsa, bir tilda muayyan maʼnoga ega boʻlgan soʻz oʻzga tillarga “sayohati” davomida boshqa mazmun “yuki” bilan qaytib kelishi etimologiyani qiziqarli faktlaridandir.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida oʻzlashma soʻzlarning qaysi tilga tegishli ekani alohida shartli qisqartmalar asosida koʻrsatilgan boʻlib, ularning oʻz tilidagi lugʻaviy maʼnosi va tilimizga oʻzlashganidan keyingi monosemantik yoki polisemantik xususiyati alohida koʻrsatib berilgan. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida tuzuvchilar tomonidan oʻzlashma soʻz olib kirgan vositachi va bevosita tillar sifatida 20 ga yaqin tillar koʻrsatilgan va har bir leksemaning qaysi tilga mansubligi izohlab ketilgan. Bular sirasiga *lotin*, *yunon*, *arab*, *fors-tojik*, *moʻgʻul*, *fransuz*, *ingliz*, *ispan*, *italyan*, *nemis*, *rus*, *golland*, *hind*, *polyak*, *xitoy*, *chex*, *portugal*, *skandinaviya* kabi tillar kiritilgan. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, fikrimizcha, oʻzbek tili izohli lugʻati (OʻTIL)ning soʻnggi nashrida koʻrsatilgan 20 ga yaqin tillardan oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri kirib kelmagan.

Bizningcha, o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni ikki guruhga ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: *birinchi guruhga* to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan so'zlar (arab, fors-tojik, mo'g'ul, rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlar), *ikkinchisiga* ma'lum bir uchunchi til orqali o'zlashgan so'zlar (masalan, rus tili vositasi orqali yevropa tillari — *fransuz, ispan, italyan, nemis, golland, polyak, chex, portugal, skandinaviya* tillaridan o'zlashgan so'zlar). Umuman olganda, tillar lug'at boyligini tashkil etuvchi leksikaning etimologiyasini o'rganish, xalqning madaniy konnotatsiyalarini bilish olamning turli manzara va konseptlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tildagi ba'zi milliy-madaniy konseptlar boshqa konseptual tizimga tarjima qilinganda o'sha madaniyatning shunga mos konseptiga almashtiriladi (1, 48). Tillardagi nomlarning etimologik kelib chiqishi ko'pincha etnoslarning rivoyatlariga borib taqaladi. Demak, olamning mifologik manzarasi turli xalqlarda turlicha terminlar paydo bo'lishi, ularning ba'zilar ilm-fan tomonidan tan olinib, ilmiy termin sifatida qo'llanilayotganligi terminologiyaning qiziqarli faktlaridandir. Bunda mifologik manzara terminini ilmiy manzara terminiga o'zlashtirilishigacha bo'lgan misolni ko'rish mumkin. Ushbu maqolada tildan tilga sayohat qilish mobaynida asl ma'nosi o'zgargan so'zlar taraqqiyotiga to'xtalamiz.

Asosiy qism. Tahlil va metodologiya Ma'lumki, tarixda turkiy xalqlar fors yoki chinlar bilan qo'shnichilik va o'zaro urushlar ta'sirida, shuningdek, arab xalifaliklarining bosqini, mo'g'ul va ruslar tomonidan Markaziy Osiyo hududlari istilo qilinishi natijasida siyosiy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy terminlar kirib kelgan va mahalliy aholi so'zlashuv tiliga o'z ta'sirini ko'rsatgan (2, 448). Natijada fors-tojik, arab, mo'g'ul va rus tillaridagi so'zlar o'zbek tiliga hech qanday qarshiliksiz to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan. Ammo sho'rolar davrida olib borilgan siyosat oqibatida o'zbek tiliga rus tilining ta'siri juda katta bo'lgan, rasmiy ish yuritish tili, savdo-sotiq, ilmiy izlanishlarning deyarli barchasi rus tili orqali amalga oshirilgan. Yevropa xalqlarining ilm-fan sohasida erishgan yutuqlarini o'rganish va boshqa siyosiy-iqtisodiy masalalar tufayli rus tiliga ko'plab so'z va terminlar to'g'ridan-to'g'ri va moslashtirish asosida o'zlashtirilgan (5, 29). Keyinchalik yuqorida ta'kidlangan sababga ko'ra, deyarli bir asr mobaynida nafaqat ruscha, balki rus tili vositasida yevropa tillaridan so'zlar o'zbek tiliga kirib keldi va adabiy tilga qabul qilindi. Bundan tashqari, o'sha davrlardagi siyosat natijasi hamda olimlarning tadqiqotlarida ruscha so'z va iboralardan o'z holida va kalka usulida foydalanganliklari ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bunga misol tariqasida o'sha davrda yaratilgan minglab ilmiy ishlanma, kitob va lug'atlarni ko'rsatish mumkin. Masalan: *“alkogol”* so'zi o'zbek tili izohli lug'ati (2006-yil, A harfi)da (12, 71) arabcha **الكحل** **al-kuhl** — *mayin kukun*, **الكحول** **al-kuhul** — *spirt* ma'nolarini bildirishi bilan birgalikda *aroq, vino va spirtli ichimliklar* ma'nolarini ham beradi” deb yozilgan. Biz ushbu arabcha so'zni o'zbek tiliga rus tiliga g'arb tillari (asosan, ispan tili) orqali kirib kelgan **алкоголь** so'zi deb hisoblaymiz. Asos sifatida arabcha **al-kuhul** so'zidagi /h/ harfi o'zbekchada /g/ harfi tarzida talaffuz

qilinishi rus tili qoidalariga to'g'ri keladi, deb ko'rsatish mumkin, Humboldning Gumbold o'qilishi kabi. Shuningdek, arab tilidan to'g'ridan-to'g'ri kirib kelgan boshqa so'zlar, jumladan, حسنة *hasana* va حافظ *hāfiz* (qarang: "O'zbek tili izohli lug'ati" 2006-yil, *H* harfi) (12, 513–553) so'zlaridagi /h/ harfi o'zbek tiliga ham /h/ harfi bilan *hasana*, *hofiz* tarzida o'zlashtirilgan.

Shu o'rinda, arabcha الكحل *al-kuhl* so'zi qanday qilib arab tilidagi yana bir so'z الكحول *al-kuḥūl* so'ziga o'zgarganligi masalasiga oydinlik kiritishga va nima sababdan bu ikki so'zning ma'nolari o'zbek tilidagi bir so'z, ya'ni *alkogol* bilan ifodalanishiga izoh berishga harakat qilamiz. Buxarest universiteti olimi Mihai Enachescuning 2019-yil "Quaestiones Romanicae VII" jurnalida "Alkogol — sayohatchi so'zning tarixi" (9) nomi ostida chop etilgan maqolasida ispancha *alcohol* so'zining etimologiyasi va asrlar davomida asl ma'nosidan chetlashib, arabcha الكحل *al-kuhl* so'zi *mayin kukun* ma'nosida ispan tiliga o'zlashgani va uzoq muddatdan so'ng arab tiliga الكحول *al-kuḥūl* bo'lib, *spirt* ma'nosi shaklida qaytganligi haqidagi izlanishlari bayon etilgan.

Ispancha *alcohol* (*Alkogol*) so'zi arabcha 'akhal — qora ma'nosini beruvchi o'zakdan kelib chiqqan الكحل *al-kuhl* (ma'nosi: *surma*, *galinit* (*qo'rg'oshin rudasi*), *ko'zga suriladigan malham*, *ko'z ostiga suriladigan kosmetik mayin kukun*) so'zidan o'zlashtirilgan.

Mihai Enachescuning fikriga ko'ra (9, 108), ispancha *alcohol* so'zi dastlab, Al-Andalus arab tilisi (árabe hispánico)dagi *kuḥūl*, bu esa o'z o'rnida arabcha *kuhl* so'zidagi *surma*, *galinit* (*qo'rg'oshin rudasi*) ma'nolari bilan ispan tiliga kirib kelgan va 1278-yil Ispaniyaning Qirollik Akademiyasi lug'atlarida aynan yuqoridagi ma'nolarda, shuningdek, *ayollar ko'zlarini qoraytirish uchun ko'z atrofiga suriladigan mayin surma kukuni* kabi ma'nosida ham yozilgan. Ispancha boshqa tarixiy lug'atlarda ham *alcohol* so'zining *ko'zga suriladigan malham*, *ko'z ostiga suriladigan kosmetika* kabi ma'nolari keltirilgan, hamda XIII asrda ispan tili orqali o'sha davrlarda butun Yevropada yozuv tili hisoblangan lotin tiliga ham kiritilgan. Lotin tili orqali ushbu so'z *surma*, *galinit* (*qo'rg'oshin rudasi*), *ko'zga suriladigan malham*, *ko'z ostiga suriladigan kosmetika*, *qora mayin kukun* ma'nolarida deyarli barcha Yevropa tillariga tarqalgan. XVI asrda alkimyogar Paraselsning *al-kuhl* hosil qilishdagi kimyoviy jarayonlar orqali vino spirti ishlab chiqaradi va mazkur kimyoviy elementni hosil jarayoni *al-kuhl*niki bilan bir xil bo'lganligi sababli aynan *alcohol* deb nomlana boshlaydi. Natijada *alcohol* yangi *moddaning silliqdash*, *sublimatsiya* yoki *distillash orqali olingan mohiyati (asosi)* va *vino spirti* ma'nolariga ega bo'ladi.

1612-yildan boshlab lotin yozuviga asoslangan kimyo faniga oid adabiyotlarda *alcohol* — *vino spirti* ma'nosida ishlatila boshlandi va bu mazmundagi *alcohol* so'zi barcha Yevropa tillariga qabul qilindi. Jumladan, ushbu leksema 1726-yildan boshlab *moddaning silliqdash*, *sublimatsiya* yoki *distillash orqali olingan mohiyati (asosi)* ma'nosida, 1786-yildan boshlab *vino spirti* ma'nosida ispan tili lug'atlariga kiritilgan. XIX asrga kelib, *alcohol* so'zi deyarli barcha Yevropa tillarida *vino spirti*, *etil spirti*, *mast qiluvchi ichimlik* kabi

ma'nolari bilan keng yoyildi va natijada **alcohol** o'zining asl ma'nosini yo'qotdi. Shu bois, **alcohol** kosmetik bo'yoq ma'nosida arabcha **al-kuḥl** so'zining talaffuziga yaqin **kohl** tarzida qayta nom bilan 1853-yil nashr qilingan ispan tilining ensiklopedik lug'atiga (7) kiritildi. Keyinchalik, *vino spirti*, *etil spirti*, *mast qiluvchi ichimlik* ma'nolarini anglatuvchi ispancha **alcohol** so'zi **الcohol** **al-kuḥl** tarzida arab tilining o'ziga qaytib bordi.

Rus tili etimologik lug'atida **алкоголь** so'zi nemischa **alkohol** yoki gollandcha **alkohol** yoki ispancha **alcohol** so'zlarining biridan o'zlashgan bo'lib (10), Yevropa tillaridagi /h/ harfi va tovushi rus tili fonetikasi qoidasiga bo'ysundurilib /r/ tarzida qabul qilingan. Umuman olganda, Yevropa tillaridagi /h/ harfi va tovushi rus tili fonetikasida bo'lmaganligi sababli ruscha /r/ ko'rinishida yoziladi va o'qiladi. Misol uchun: *Honduras* — *Гондурас*, *Harvard* — *Гарвард*, *Hugo* — *Гюго*, *Harry* — *Гарри*. Shu bois, o'zbek tiliga rus tilining kuchli ta'siri oqibatida arabcha **al-kuḥl** so'zi ruscha talaffuzdagi **alkogol** tarzida kirib kelgan. Chunki arab tiliga **al-kuḥl** so'zi *vino spirti*, *mast qiluvchi ichimlik* ma'nolarida qayta kirib kelgan davrida arab tilining o'zbek tiliga ta'siri deyarli yo'q edi, demak, o'zbekcha **alkogol** so'zini o'zbek tili lug'at boyligiga to'g'ridan to'g'ri arabchadan kirib kelgan deb ko'rsatish etimologik jihatdan adolatdan emas, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, **Zenit** so'zi ham o'zining qiziqarli "sayohatiga" ega. Bu leksema o'zbek tilining 2006-yildagi izohli lug'atida fransuzcha **zenith** so'zidan va bu esa arabcha **سمت** **samt** (*yo'l*, *yo'nalish*, *kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqta [astronomiyaga oid]*) so'zidan o'zlashtirilganligi ("Z" harfi, 12, 145) haqida ma'lumot keltirilgan. Biz bu so'z ham rus tili vositasida **зенит** (4) so'zidan o'zlashtirilgan deb hisoblaymiz.

Kadis universiteti arab tili va islom ta'limotini o'rganish kafedrası professori, arabshunos olim Xoakin Bustamante Kostaning olib borgan izlanishlari natijasida zamonaviy ispan tilidagi **cenit** so'zi qadimgi ispan¹ yozuvida **cemt** shaklida astronomik adabiyotlarni xato o'qish (fonetik jihatdan talaffuzga moslab o'qish) yoki xato ko'chirish/tarjima qilish orqali paydo bo'lgan.

Asli arabcha **samt** so'zi XIII asrda o'sha davr Ispaniyasida yagona bo'lgan Toledo tarjimonlar maktabida ispan tiliga **cemt** ko'rinishida o'girilib, astronomik termin sifatida adabiyotlarda foydalanila boshlangan. **Samt** so'zidagi /s/ tovushining ohangi bilan ispan tilidagi [s] harfining talaffuzi mos bo'lmaganligi tufayli u ispan tili (*lengua romance*)dagi fonetik jihatdan yaqin [c — /θ/] harfiga; /a/ tovushi esa /e/ tovushiga o'zgarib **samt** → **cemt** tarzida yozila boshlangan. Vaqt o'tishi bilan got yozuvida ko'chirilgan ispancha qo'lyozmalar lotin tiliga xato ko'chirish tufayli **cenit** shakliga ega bo'lgan. O'sha davrda lotin tili va u orqali shakllangan roman tillarida

¹ XIII asrda lotin tili asosida shakllangan Yevropa tillari umumiy roman tillari deb yuritilgan, masalan, ispan tili — Iberiya yarim orolidagi roman tili [*lengua romance*], deb nomlangan.

soʻz oxirida /n/ va /t/ undoshlarining ketma-ket kelishi tez-tez uchrab turgan. Biroq **samt** → **cemt** leksemasi kabi /m/ va /t/ undoshlarining ketma-ket kelish holati bu tillar uchun begona edi. Buning ustiga, yozishning got uslubida harflar maʼlum bir qoida asosida yozilib, unga koʻra /m/ harfi bir-biriga ulangan uch dona toʻgʻri chiziqdan iborat, oʻquvchi yoki xattot **cemt** soʻzini oʻqiganda /m/ harfidagi uchinchi toʻgʻri chiziqning ustiga bir nuqta qoʻyadi va shu tariqa u **cenitga** aylanib ketadi (8).

Ispan tilshunoslari Xuan Korominas va Xose A. Paskuallarning “Kastiliya va ispan tillarining tanqidiy etimologik lugʻati”da **cenit** soʻzi xato oʻqilishi asosida yuzaga kelganligi va bu ilk bora Alfonso el Sabioning 1256-yildagi “Astronomiyani bilish kitoblari” (Libros del Saber de Astronomía) (13, 79) nomli qoʻlyozmasida uchraganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar kelgan. Shuningdek, bu haqida Ispaniyalik arabshunos olim Federico Corriyentening “Arabizmlar va Iberiya yarim oroli tillaridagi oʻxshash soʻzlar lugʻati” nomli izohli lugʻatida ham taʼkidlab oʻtilgan (11, 16).

Keyinchalik **cenit** fransuz tiliga **zénith** (6) tarzida oʻzlashdi, rus tiliga esa **зенит** “qiyofasi”da kirib bordi. Oʻzbek tilidagi **zenit** leksemasi (oʻzbek tilining avvalgi kiril alifbosida **зенит**) arabcha **samt** soʻzining “sayohati” ispanchaga **cemt** → **cenit**; fransuzchaga **zénith**; ruschaga **зенит**ga aylanishi, va nihoyat oʻzbek tiliga ham **zenit** tarzida lugʻatlardan mustahkam oʻrin egallashi bilan davom etdi. OʻTILda **zenit** soʻzining ikkinchi maʼnosi harbiy termin sifatida *osmondagi nishonlarni urib tushurishga, oʻqqa tutishga moʻljallangan* kabi berilishi² ham uning vosita til — rus tilidan maʼnolari (3, 219) bilan oʻzlashganligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, oʻzlashgan soʻzlar tahlilida jahon tillari lugʻat boyligida salmoqli oʻrin egallagan leksemalar etimologiyasi eʼtiborni tortadi, ularning baʼzilari ancha ilgari oʻzlashgan va deyarli oʻz leksik qatlamga aylanib ketgan. Ispan va oʻzbek leksikografiyasidan oʻrin olgan baʼzi soʻzlar tadqiqi etimologik oʻziga xos maʼno-mazmunni anglatishini alkogol va zenit misolida ochib berildi.

Demak, olam manzarasi tadqiqida etimologiyaga murojaat qilish juda koʻplab qiziqarli faktlarni taqdim etadi, qoʻshimcha tariqasida, soch va bosh terisini yuvish uchun qoʻllanadigan *shampun* (isp. *shampú*) inglizcha *shampoo* leksemasidan kelib chiqqan. Ispan tilshunosi Korominasning fikriga koʻra, bu soʻz ispan tilida XX asr boshlarida hujjatlashtirilgan (18). Inglizcha *shampoo*, oʻz navbatida, hindcha *champo* soʻzidan kelib chiqqan, bu buyruq soʻz boʻlib, “massaj qil, siq” kabi maʼnoni anglatgan. Soch va bosh terisini yuvish uchun dastlab suyuq sovundan tayyorlangan ushbu modda qoʻllanilishi haqida oʻylab koʻrsak, nazarimizda bu nom mantiqiy

² Harbiy qurol nomi sifatida Zenit termini ilk bora Rossiyada nomlandi: rus harbiy muhandislari tomonidan 1914–1915-yillarda havo hujumidan himoya qilish va osmondagi nishonlarni urib tushurishga moʻljallangan toʻp otar qurol ixtiro qililib, unga ‘zenit toʻp otar quroli’, deb nom berilgan.

tuyuladi. Yoki elastikligi yuqori ipak, neylon (spandex, lycra, elasthan) kabi nozik matolardan tikilgan xotin-qizlar garderobidan mustahkam o‘rin olgan kiyim — *kolgotki* zamonaviy ispan tilida *pantis*, medias o‘z o‘rnida Amerika ingliz tilidagi *Pantyhose* so‘zining qisqarib o‘zlashgan varianti hisoblanadi. O‘zbek tilidagi *kolgotki* varianti rus tili vositasida kirib kelgan, ammo bu termin aslida ruscha emas. U chex tilidagi **kalhoty** so‘zidan kelib chiqib, shim mazmunini bergan (19). Kolgotki leksemasini O‘TILga kiritish kerak, deb hisoblaymiz. Zotan, bugungi hayot tarzida kolgotki olamning kundalik manzarasida muhim ahamiyatga ega (ayniqsa, xotin-qizlar kiyim-kechak javonini usiz tasavvur etib bo‘lmaydi).

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirgan o‘zlashma leksemalar kabi barcha tillarga u yoki bu tillardan kirib kelgan so‘zlar ko‘p miqdorni tashkil etadi. Tilimizdagi so‘zlarning kelib chiqishi, semantikasini o‘rganishda, ularni tadqiq va tahlil etishda turli tillardagi etimologik lug‘atlarning o‘rni beqiyosdir. Modomiki, yaratilayotgan o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida so‘zning qaysi tildan kirib kelgani ko‘rsatilayotgan ekan, uning aniq manbalari va aynan qaysi tildan kirib kelganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli deb hisoblaymiz. Turli leksemalar, metaforalar tadqiqida ularning dunyo xalqlarida har xil ma’no-mazmunga egaligi, nomlanishi bu millatlar tezaurusida nafaqat tafakkurning turlicha shakllanganligidan, balki ayrim so‘zlarning taraqqiyoti davomida yoki u tildan bu tilga ko‘chishi davomida birlamchi ma’nosidan uzoqlashib ikkilamchi mazmun kasb etgani bilan ham izohlanadi.

Til haqida gap ketganda, psixolingvistikada u ma’ruzachi va tinglovchi, yozuvchi va o‘quvchining ichki olami mavjudligi darajasida mavjuddir, deyiladi. Ya’ni ushbu fanning obyekti nutq faoliyatining egasi — inson hisoblanadi. Shuning uchun odatda madaniy-lisoniy-ruhiy til xususiyatlari bizgacha faqatgina matni yetib kelgan o‘rxun-enasoy, sanskrit kabi “o‘lik” tillarni tadqiq etish bilan o‘rganilmaydi, chunki bu tillarda matn yaratuvchilarining ruhiy olamlari mavjud emas. Ammo so‘zlar etimologiyasini o‘rganish bizni nafaqat o‘tmishda qolgan, balki zamonamiz tillariga ham murojaat qilishga undaydi. Zero, ular bizga qiziqarli faktlarni taqdim etadi.

Umuman olganda, har bir til lug‘at boyligining kelib chiqishi — etimologiyasini chuqur o‘rganish bu birliklar shakllanishida etnoslar hududiy joylashuvi va o‘ziga xos milliy-madaniy rivojlanishining ongga, bilimga ta’siri hamda o‘zlashma so‘zlarning nima sababdan va qanday qabul qilinishi katta ahamiyatga molikligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakhronova D. Olam manzaralari ifodasida milliy-madaniy va lingvogeografik omillarning roli // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”. — 2021. № 3 (38). — B. 41-51. — URL: <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)
2. Baxronova D.K., Abduraxmatova N.O. Ispan va o‘zbek tillariga o‘zlashgan neologizmlarning tarixiy-semantik tadqiqi // Молодой ученый. — 2021. — № 52 (394). — С. 446-449. — URL: <https://moluch.ru/archive/394/87140/>
3. Bellamy Chris. The Red God of War — Soviet Artillery and Rocket Forces. — London: Brassey’s, 1986. — 350 p.

4. Bolshaya Sovetskaya ensiklopediya. ZENIT. — URL: <https://rus-bse.slovaronline.com/28026>
5. Burxonov O'. (2022) "Arabizmlarning ispan tili leksikasiga o'zlashganlik tarixiga doir" // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2022. — Volume 2, Issue 7. — B. 27-34. (ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7,) — URL: <https://oriens.uz/journal/article/arabizmlarning-isan-tili-leksikasiga-ozlashganlik-tarixiga-doir/>
6. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales. — URL: <https://www.cnrtl.fr/definition/zenith>
7. Diccionario Enciclopédico Gaspar y Roig. — URL: https://es.wikipedia.org/wiki/Diccionario_Enciclop%C3%A9dico_Gaspar_y_Roig
8. Diccionario etimológico español. — URL: <http://etimologias.dechile.net/?cenit>
9. Enăchescu M. "Quaestiones Romanicae VII": "Alcohol — historia de una palabra viajera". — 2019. — № 1-2. — P. 105-113. — URL: https://www.researchgate.net/publication/336982832_Alcohol_-_historia_de_una_palabra_viajera
10. Etimologicheskiy slovar russkogo yazika // ALKOGOL. — URL: <https://vasmer.slovaronline.com/179-ALKOGOL>
11. Federico Corrienti. "Arabizmlar va Iberiya yarim oroli tillaridagi o'xshash so'zlar". — Madrid: Gredos, S.A., 1999. — 282 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 5 TOM. — Toshkent, 2006-2008 yillar.
13. Xuan Korominas, Xose A. Paskual. "Kasteliya va ispan tillarining tanqidiy etimologik lug'ati". — Madrid, Gredos, S.A., 1984, CE-F harflari. — 628 bet.
14. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi filol. fan. nomz. Q.Karimov. — Toshkent, 1971. — 158 b.
15. Alisher Navoiy hikmatlari. — URL: <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/alisher-navoiy-hikmatlari/>
16. Колесов В.В. Древняя Русь: наследие в слове. Кн.1. Мир человека. — Санкт-Петербург: Филологический факультет СПб ГУ, 2000. — 299 с.
17. [http://etimologias.dechile.net/?Renacimiento#:~:text=La%20palabra%20renacimiento%20se%20compone,hacer%20nacer\)%20en%20grado%20cero](http://etimologias.dechile.net/?Renacimiento#:~:text=La%20palabra%20renacimiento%20se%20compone,hacer%20nacer)%20en%20grado%20cero)
18. <http://etimologias.dechile.net/?champu.->
19. <https://bracatus.com/kolgoty-ili-kolgotki>

References

1. Bakhronova D. *Cientific-methodological electronic journal Foreign Languages in Uzbekistan*, 2021, No. 3 (38), 41-51. <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)
2. Bakhronova, D. K. *Molodoy uchenyy*, 2021, No. 52 (394), pp. 446-449, available at: <https://moluch.ru/archive/394/87140/>
3. Bellamy, Chris. *El dios rojo de la guerra: artillería soviética y fuerzas de cohetes*. Londres: Brassey's, 1986, 350 p.
4. Enciclopedia Bolshaya Sovetskaya. ZENIT, available at: <https://rus-bse.slovaronline.com/28026>
5. Burxonov U. (2022) *Sobre la historia de la asimilación de los arabismos al léxico español*, Renacimiento oriental: Ciencias innovadoras, educativas, naturales y sociales VOLUMEN 2 | NÚMERO 7 ISSN 2181-1784 Revista científica Factor de impacto SJIF 2022: 5,947 Índice de ciencias avanzadas Factor ASI Factor = 1,7, pp. 27-34, available at: <https://oriens.uz/journal/article/arabizmlarlarin-isan-tili-lexiksiga-ozzhalzanlik-tarikhiga-doir/>
6. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales <https://www.cnrtl.fr/definition/zenith>
7. Diccionario Enciclopédico Gaspar y Roig. Available at: https://es.wikipedia.org/wiki/Diccionario_Enciclop%C3%A9dico_Gaspar_y_Roig
8. Diccionario etimológico español. <http://etimologias.dechile.net/?cenit>
9. Enăchescu M. Revista "Quaestiones Romanicae VII" 1-2: "Alcohol - historia de una palabra viajera". EAN: ISSN 24578436I SSNL 24578436, Timisoara, 2019,

- 105-113 p., available at: https://www.researchgate.net/publication/336982832_Alcohol_-_historia_de_una_palabra_viajera
10. Etymologicheskiy slovar russkogo yazika // ALKOGOL, available at: <https://vasmer.slovaronline.com/179-ALCOHOL>
11. Federico Corrienten. Arabismos y cognados en las lenguas de la Península Ibérica. Madrid: Gredos, S.A., 1999, 282 p.
12. *An explanatory dictionary of the Uzbek language. Under the editorship of A. Madvaliyev*, Taskent, 2006-2008.
13. Juan Corominas, José A. Pascual. Diccionario Etimológico Crítico de las Lenguas Castellana y Española, Madrid, Gredos, S.A., 1984, letras CE-F, 628 p.
14. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi filol. fan. nomz. Q.Karimov, Toshkent, 1971, 158 p.
15. Alisher Navoiy hikmatlari, available at: <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/alisher-navoiy-hikmatlari/>
16. Kolesov V.V. *Drevnyaya Rus: naslediye v slove* (Ancient Rus': heritage in the word), Sankt-Peterburg: Filologicheskiy fakultet SPb GU, 2000, 299 p.
17. [http://etimologias.dechile.net/?Renacimiento#:~:text=La%20palabra%20renacimiento%20se%20compone,hacer%20nacer\)%20en%20grado%20cero](http://etimologias.dechile.net/?Renacimiento#:~:text=La%20palabra%20renacimiento%20se%20compone,hacer%20nacer)%20en%20grado%20cero)
18. <http://etimologias.dechile.net/?champu.->
19. <https://bracatus.com/kolgoty-ili-kolgotki>